

## **Xalqaro iqtisodiy cheklovlar (sanksiyalar) yuzasidan**

### **MIJOZLAR UCHUN ESLATMA!**

**Hamkorbank** aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda - Bank deb yuritiladi) Sizni Bank tomonidan o‘z faoliyatini yuritishi mobaynida xalqaro iqtisodiy cheklovlar (sanksiyalar) talablariga rioya qilish haqida eslatib o‘tadi.

Xalqaro iqtisodiy cheklovlar ikki turga bo‘linadi:

- **mamlakatlarlarga qo‘yilgan embargo;**
- **individual embargo.**

**Mamlakatlarlarga qo‘yilgan embargo** - BMT va cheklovlarni joriy qilish huquqiga ega boshqa xalqaro tashkilotlar yoki ayrim davlatlar (odatda kuchli iqtisodiyotga ega AQSh, Yevropa Ittifoqi kabi davlatlar) tomonidan muayyan bir mamlakat bilan savdo va moliyaviy aylanmalarni va boshqa turdagi aloqalarni cheklanishidir.

Masalan, **Eron Islom Respublikasi, Shimoliy Koreya, Sudan (Janubiy Sudan), Qrim, Kuba va Siriya** davlatlariga xalqaro tashkilotlar yoki ayrim davlatlar tomonidan to‘liq embargo qo‘yilgan bo‘lib, bu mamlakatlar (hududlar) vakillari bilan bevosita yoki bilvosita hamkorlik qat‘iyan man etilgan.

**Belarus Respublikasi, Burundi, Venesuela, Kongo Demokratik Respublikasi, Iroq, Yaman, Zimbabve, Livan, Liviya, Myanma (Birma), Rossiya Federatsiyasi, Somali, Bolqon yarim oroli mamlakatlari va Markaziy Afrika Respublikasi, Ukraina, Eriteriya** davlatlariga nisbatan qisman embargo rejimi joriy qilingan bo‘lib, ushbu cheklovlar muayyan iqtisodiy sohalarga joriy qilinganligi va ayrim huqukiy bitimlarga cheklov yoki taqiq qo‘yilganligini bildiradi.

**Shaxsiy (individual) embargo** - BMT va cheklovlarni joriy qilish huquqiga ega boshqa xalqaro tashkilotlar yoki ayrim davlatlar tomonidan sanksiyalar ro‘yxatiga (**“qora ro‘yxatga”**) kiritilgan shaxslar va tashkilotlar bilan savdo, moliyaviy va boshqa turdagi hamkorlik borasidagi ta‘qiqlar, cheklovlar.

**Bank mijozlari tomonidan xalqaro to‘lovlarni amalga oshirishda yoki qabul qilishda oluvchini yoki jo‘natuvchini:**

a) yuqorida qayd etilgan mamlakatlar rezidenti bo‘lsa (jismoniy yoki yuridik shaxsligidan qat‘iy nazar);

б) **“qora ro‘yxat”** ga kiritilgan shaxslar yoki tashkilotlar bo‘lsa;

в) shuningdek, Bankka taqdim etilgan to‘lov hujjatlari va ularning ilovalarida (kontraktlar, shartnomalar, invoyslar, bojxona yuk deklaratsiyasi va boshqa hujjatlar) to‘lov haqidagi ma‘lumotlarda yuqoridagi mamlakatlar qayd qilingan bo‘lsa yoki **“qora ro‘yxat”**ga kiritilgan

shaxslar yoki tashkilotlar haqida qandaydir axborot mavjud bo'lgan taqdirda xalqaro to'lov tizimi ishtirokchilarining biri tomonidan o'tkazma bloklab yoki to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Keltirib o'tilgan xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida Bank xalqaro tashkilotlar, mahalliy davlat organlari yoki ayrim davlatlar cheklovlariga mos kelib qolgan bo'lsa, mijozning **to'lovlarni o'tkazish bo'yicha topshirig'ini rad etish yoki amaliyotlarni bajarishni to'xtatish** huquqiga ega ekanligini e'tiborga olishingizni so'raydi.

Shuningdek, xalqaro iqtisodiy cheklovlar tufayli xalqaro to'lov tizimlari ishtirokchilari tomonidan amaliyotlarni o'tkazishni rad etilishi yoki to'xtatilishi natijasida yuzaga kelgan zararlar bo'yicha "Hamkorbank" ATB **hech qanday javobgarlikni zimmasiga olmasligini eslatib o'tamiz.**

Hurmatli mijoz, agar biznesingiz chet davlatlarga va chet davlatlarda ro'yxatdan o'tgan sub'yektlarga bog'liq bo'lsa, ushbu davlatlarni hamda xorijiy hamkoringizni Birlashgan Millatlar Tashkiloti, mahalliy davlat organlari va AQSh, Yevropa Ittifoqi kabi davlatlar cheklovlariga aloqadorligini tekshirib borishingizni tavsiya qilamiz.

*(Izoh: yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlar ro'yxati yakuniy emas, cheklov joriy qilingan mamlakatlar ro'yxati doimiy o'zgarib turadi)*